

**Betakror me'moriy yodgorlik namunasi - Labi hovuz ansambli tarixi****Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
San'atshunoslik va muzeyshunoslik fakulteti 3-kurs muzey menejmenti va
madaniy turizm yo'nalishi talabasi
Saloyeva Ozoda**


Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimiy va asrlar sinovidan o'tib kelayotgan navqiron Buxorodagi nodir madaniy meros yodgorligi, o'tmishda va hozirda ham shahardagi eng turistik va ommabop markaz bo'lmish Labi hovuz ansambli haqida so'z boradi. Maqola ushbu mavzu haqida qimmatli ilmiy ma'lumotlarga ega ekanligi bilan alohida ahamiyatga molik va bunday me'morchilik namunalari arxitekturasi bilan qiziquvchilar uchun ilmiy -uslubiy qo'llanma hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Arxitektura, ansambl, sayohat, moddiy va ma'naviy madaniyat, karvonsaroy, xonaqoh, madrasa, devonbegi, ko'kaldosh, peshtoq, mozaika, mayolika, gumbaz, hujra, peshayvon.

Аннотация: В статье речь пойдет об ансамбле бассейнов Ляби, редком памятнике культурного наследия современной Бухары, который является древним и прошедшим проверку временем, а также самым туристическим и популярным центром города в прошлом и настоящем. Статья имеет особое значение, так как содержит ценную научную информацию по данной теме и является научно-методическим пособием для интересующихся архитектурой подобных архитектурных образцов.

Ключевые слова: Архитектура, ансамбль, путешествия, материальная и духовная культура, караван-сарай, ханака, медресе, девонбеги, кокалдош, пешток, мозаика, майолика, купол, худжра, пешайвон.

Annotation: This article is about Labi Pool Ensemble, a rare cultural heritage monument in modern Bukhara, which is ancient and has passed the test of ages, and is the most touristic and popular center in the city in the past and now. The article is of particular importance as it contains valuable scientific information about this topic and is a scientific-methodical guide for those interested in the architecture of such architectural examples.





Keywords: Architecture, ensemble, travel, material and spiritual culture, caravanserai, khanakah, madrasa, devonbegi, kokaldosh, peshtoq, mosaic, majolica, dome, hujra, peshavon.

Buxoro shahri sharqning mashhur qadimiy shaharlaridan biri. Buxoro o'zining ko'p ming yillik tarixiga ega. Ushbu hududda ko'plab allomalar, buyuk zotlar, olim-u ulamolar yetishib chiqqan. Qadimdan Buxoro - Islom dinining gumbazi deya bekorga aytilmagan. Bu yerda juda ham ko'plab qadimiy me'moriy inshootlar namunalarini uchratishimiz mumkin. Ular o'zining zamonasida ham, hozirda ham yuksak darajada ulug'lanib kelinadi. Ushbu maqolada mana shunday madaniy meros obyektlaridan bir nechtasini bayon qilamiz.

Labi Hovuz - 1510-1530-yillarda qurilgan. Ushbu ansambl Buxoro amirligi bosh vaziri Nodir devonbegi nomi bilan bevosita bog'liqligi haqida ko'plab tarixiy faktlar mavjud.

Dastlab bu yerda Labi Hovuz bilan birgalikda Nodir devonbegi xonaqohi va karvonsaroy quriladi. Karvonsaroy vaqf mulkiga berilib xonaqohni xarajatlarini qoplab turish rejalashtirilgan edi. Lekin o'sha vaqtlardagi Buxoro amiri Labi hovuz ansamblidagi Karvonsaroyini yanglishib ketib, xalq oldida madrasa deya e'lon qilib yuboradi. Shu tariqa Amrning yuzidan o'tolmagan saroy amaldorlari Karvonsaroyini madrasaga aylantirishadi. Bu holat Nodir devonbegi madrasasining qurilishida ham yaqqol bilinib turadi. Amirlikda bir xil reja asosida qurilgan madrasalardan farqli ravishda Nodir devonbegi madrasasi ichida masjid ham, katta qiroatxona ham yo'q. Keyinchalik karvonsaroyning xonalari madrasa faoliyatiga moslashtiriladi. Nodir Devonbegi madrasasi va xonaqoh toki chor Rossiyasi bosqiniga qadar faoliyat olib borgan.

Shuningdek, xalq og'zaki ijodida ham bu inshoot haqida ko'plab rivoyatlar mavjud. Rivoyatlardan birida Labi Hovuz va uning atrofidagi binolarni mahr evaziga berilgan zirak bahosiga qurilgani haqidadir. Nodir devonbегining o'zi yirik amaldor bo'lsa ham, oilasi o'rta qatlam vakili bo'lgan. Devonbegi yoshligidan ancha ilmga chanqoq bo'ladi va tezda amal pillapoyalaridan ko'tarilib, Buxoro amirining Bosh vaziri Devonbegi etib tayinlanadi. Amir qarorgohida ishlab yurgan vaqtlarida boy va mansabdor kishining qizini sevib qoladi hamda unga sovchi qo'yadi. Mahrga qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan bir juft tilla zirak beriladi.





Kelin uchun berilgan ushbu mahr kamdek ko‘rinadi va qiz andak xafa ham bo‘ladi. Sababi bo‘lajak kelin ancha boy oilada yashagan, kuyov bola ham uncha-muncha emas, naqd Buxoro amirligining Bosh vaziri- Devonbegi edi. Shunday bo‘lsada nikohga qiz tomonidan rozilik bildiriladi hamda to‘y bo‘lib o‘tadi. O‘zining tilla-taqinchoqlarini mo‘‘jazgina sandiqchalarda saqlaydigan aksar saroy xonimlari kabi Devonbегining ayoli ham o‘z tilla-taqinchoqlarini va ushbu ziraklarni sandiqchaga solib qo‘yadi.

Shu asnoda bir qancha yillar o‘tadi. Bir kun ayol sandiqchani ochib qarasa bir juft zirakning bittasi yo‘q bo‘ladi, uni qidirib ham topa olmaydi. So‘ng devonbегining ayoli xonadonda to‘polon ko‘taradi, uyimizda o‘g‘ri chiqibdi deya har tarafga jar soladi. Shu asnoda Nodir devonbegi kelib ayolini tinchlantirib, zirakni bir jufti kerak bo‘lgani uchun olganini aytadi.

Bir qancha vaqt o‘tib Nodir devonbegi keladi va ayoliga Buxoro shahrini aylanishni taklif qiladi. Devonbegi ayolini o‘sha vaqtda endigina qurib bitkazilgan Labi Hovuz ansambliga olib boradi. Bunday so‘lim go‘sha, katta hovuz va chiroyli binolar devonbегining ayolini o‘ziga maftun etadi. «Bunday chiroyli binolaru hovuzni kim qurdi, qachon qurildi bular?» deya Devonbegidan savol so‘raydi. Nodir devonbegi bir qachon vaqt oldin olgan ziragini eslatadi hamda o‘sha zirakning bittasini evaziga ushbu binolarni qurdirdim deydi. Shundan so‘nggina devonbегining ayoli mahr uchun berilgan ushbu bir juft zirakning naqadar qimmatbaho ekanligini tushunib yetadi.

Labihovuz ansambli — Buxorodagi me‘moriy yodgorlik (17-asr). Dastlab bozor maydoni bo‘lgan. Maydon o‘rtasida katta hovuz qazilib (1620 yil) atroflari sinchlar bilan mustahkamlangan, harsanglardan zinapoyalar, marmardan tarnovlar ishlangan. Shag‘al va tuproq bilan to‘ldirilib shibbalangan. Hovuz eni 36 m., bo‘yi 45,5 m., chuq. 5 m. Uning g‘arbida Nodir Devonbegi xonaqohi, sharqida Nodir Devonbegi madrasasi, shimolida Ko‘kaldosh madrasasi va Ernazar elchi madrasasi (saqlanmagan) qad ko‘targan. Hozirgi hovuz atrofiga chinorlar ekilib, choyxona qurilgan. Yodgorliklar ta‘mirlangan.

Ko‘kaldosh madrasasi (Ko‘kaltosh madrasasi) — O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati Buxoro shahrining tarixiy markazida, Labihovuz ansamblining shimoli-sharqiy tomonida joylashgan 2 qavatli madrasa inshooti.

Buxoro xonligining poytaxtida 1568/69-yilda Qulbobo ko‘kaldosh tomonidan bunyod etilgan madrasa, shu davrdan boshlab, hozirgi kungacha Markaziy Osiyoning eng yirik madrasasi maqomini o‘zida saqlab turibdi.





Buxoro xonligi, Buxoro amirligi va Buxoro xalq sovet respublikasining o‘ziga xos Fanlar akademiyasi (Dor ul-fununi) bo‘lgan.

Hozirda Buxoroda eng og‘ir ahvolda qolib ketgan madaniy meros obyektlaridan biri bo‘lib, unda ayollar go‘zallik saloni, video-montaj ustaxonasi, ofislar, do‘konlar, hunarmandchilik ustaxonasi va hujra-muzeyi joylashgan. Aksariyat hujralari ta‘mirtalab ahvolda qolib ketgan.

Ko‘kaldosh madrasasining vaqf hujjatlari ilk bora professor Muso Saidjonov tomonidan o‘rganilib, o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Keyinchalik, hujjatlar Abdusattor Jumanazar tadqiqotlari davrida qayta o‘rganib chiqilgan.

Madrasaning bizgacha ikkita vaqf hujjati yetib kelgan. Biri asl (1593—1594-yillarda tuzilgan), ikkinchisi Buxoro amirligi hukmdori Amir Shohmurod (1785—1800) davrida ko‘chirilgan nusxa. Asl nusxa charm g‘ilofli, o‘ram shaklida, tili forsiy, nasta‘liq xatida yozilgan. Ko‘chirma nusxa ham asliga mos.

Vaqf hujjatida Ko‘kaldosh madrasasi qurilishi bilan bog‘liq shunday ma‘lumotlarni ko‘rish mumkin:

“Amir Yormuhammad otaka o‘g‘li Qulbobo Ko‘kaldosh pishiq g‘ishtdan ko‘p hujrali, toqli-ravoqli, ichki va tashqi sahnli, masjidi, darsxonasi va tahoratxonasi bor ajoyib madrasa qurdirdi.

Madrasaga asos solinishi. Shayboniylar o‘zbek sulolasi davrida davlat poytaxti bo‘lgan Buxoro shahri ilm va ma‘rifat kishilari jamlangan bir go‘shaga aylangan. Ubaydullaxon davrida (1509—1540) Buxorodagi ilmu-hunar ahli shunday yuksak bir darajaga erishdiki, bu jihatdan shahar Sulton Husayn Boyqaro zamonasidagi Hirotni ham esga solib turgan bo‘lsa, Abdullaxon II hukmronligi davrida (1557—1598) poytaxtning sarhadi ko‘paydi. Shaharda rekonstruksiya ishlari davom ettirildi, ana shu ta‘mirlash va takomillashtirish jarayonida eski to‘kilgan binolar ta‘mirlangan yoki butunlay buzib tashlangan va ayrim ko‘chalar kengaytirilgan edi. Eski shahar va Yangi shahar bozorlari hududida me‘morchilik majmualari — masjidlar, hammomlar, karvonsaroylar va hokazolarni o‘z ichiga olgan o‘ziga xos diniy-ijtimoiy markazlar vujudga keldi. Bozorlar kengayib borishi natijasida turarjoy binolarini siqib, nari surish jarayoni ham yonma-yon kechdi. Yangi turarjoy mavzelari, xonaqoh, masjid va madrasalar Buxoro chekkalaridagi odamlar bir mahallar tashlab ketgan maskanlarda bunyod etila boshladi. Abdullaxon II va uning amirlari, ularning orasida esa eng





nufuzlisi Qulbobo ko'kaldosh qurilishlarning asosiy donatorlaridan (homiylari va buyurtmachilaridan) biri sifatida ish ko'rgan edi.

Ko'kaldosh madrasasi 1568—1569-yillarda Buxoro xonligi poytaxtining markaziy ko'chalaridan birida, Qoqilai hurd yoki Ko'kaldosh guzarida, o'zbek hukmdori Abdullaxon II (1557—1598) hukmronligi davrida, xonning hohishi bilan, uning yaqin vaziri va sarkardasi Qulbobo ko'kaldosh donatorligida bunyod etilgan. U kattaligi va egallagan maydoni jihatidan avvalgi madrasalardan ustun o'laroq, bu davrda nafaqat Buxorodagi, balki Markaziy Osiyodagi (O'rta Osiyodagi) eng yirik madrasa inshooti bo'lib, hozirga qadar shu maqomni o'zida saqlab qolgan.

Madrasa uchun Qulbobo ko'kaldosh Buxorodagi tim, govxona, nonvoyxona, hammom, 2 karvonsaroy, 27dan ortiq do'konlarni (paxta savdosi, sarroflik, qassoblik, oshpazlik, bo'yoqchilik, tarvuzfurushlik va hokazolar); Kasbidagi Nayiston qishlog'ini to'laligicha; Harqonruddagi Xatoizza (yoki Xatog'arra), Zulayho qishloqlarini; G'ijduvondagi Qasri quzzot qishlog'ini vaqf qilgan. Oradan bir qancha vaqt o'tib, jamoat arboblari, olim-u ulamolar va din peshvolari ham o'zlarining turli miqdordagi mulklarini ushbu madrasa uchun vaqf qiladi. Shuningdek, dinga, fiqh va arab grammatikasiga oid kutubxona kitoblari ham madrasa foydasiga vaqf qilingan bo'lib, ularning ro'yxati bizgacha yetib kelgan.

Rivoyat qilinishicha, Ko'kaldosh madrasasining vaqfiga kiritilgan hammom, hozirgi Mavlono Sharif xonaqosi o'rnida bo'lgan. Vaqf ta'sisчисining vasiyatiga ko'ra, ushbu hammomda madrasa talabalari bepul cho'milishlari kerak bo'lgan. Bino yomon holatga kelib qolgandan so'ng, Mavlono Sharif madrasa vaqfi foydasiga topshirish uchun Dungiyoq qishlog'idan yer maydoni sotib oladi. Buning evaziga hammom uning xususiy mulkiga o'tadi, u hammomni buzdirib, o'rniga xonaqoh bunyod ettiradi.

Ko'kaldosh madrasasi vaqfi istifodasiga kiritilgan 2 karvonsaroydan biri So'xta deb nomlangan. Unga o't ketishi natijasida yonib ketgan va o'rnida bizgacha yetib kelgan No'g'ay karvonsaroyi qurilgan. U unchalik ham sezilarli bo'lmagan o'zgarishlar va chekinishlar bilan o'z o'tmishdoshini deyarli aynan takrorlagan.

Madrasaning old fasadi asosiy kirish peshtog'idan va ikki qanotdan tashkil topgan va Labihovuz ansambli maydoniga qaratilgan. Qanotlar tarkibiga 2 qavatli hujralar va 2 ta gumbazsiz guldastalar kiradi. Madarasa ichkarisiga peshtoqning naqshinkor darvozasi orqali kiriladi. Darvoza ortida miyonsaroy joylashgan bo'lib, u orqali madrasa hovlisiga eltuvchi yo'laklar o'tgan va uning ikki yonida madrasa zallari





(masjid va darsxona) joylashgan. Zallarning tashqi gumbazlari buzilib ketgan. 2 ayvonli hovli, 2 qavatli katta-kichik hujralar bilan o‘rab olingan. Inshoot o‘z davri me‘morchilik qoidalariga ko‘ra mozaika va mayolika bilan bezatilgan. Madrasa hujralarining umumiy soni 160 ta.

Madrasaning old tomoni peshtoqli bo‘lib, Labihovuz ansambli maydoniga qaratilgan. Peshtoq markazda joylashgan bo‘lib, u bosh fasadning ikki qanotini birlashtirib turadi. Uning pastki qismida, 2 tomonda yashil oniksdan bir xil qilib bejirim ishlangan kichik ustunchalar o‘rnatilgan. Peshtoqni avvallari bezatib turgan koshinlari (kitobasidagi yozuvlardan tashqari) hozirgacha saqlanib qolmagan. Oxirgi kapital ta‘mirdan so‘ng kitoba va qanoslargina koshinlar bilan bezatilgan.

Peshtoq tarkibidagi madrasaga kirish darvozasi alohida e‘tiborga sazovordir. U girih va islimiy naqshlar bilan bezatilgan. Xotamkori uslubida terib mahkamlangan (mix qoqmay, „tirno“ qilib mahkamlangan), pilakchalardan (yog‘och parchalaridan) yasalgan darvozaning har bir tabaqasi yaxlit taxtadan tayyorlangandek ko‘rinadi. Darvoza ortida miyonsaroy joylashgan.

Fasad qanotlarida Buxoro me‘morligiga xos qadimgi milliy an‘analar aks ettirilgan. Ular 2 qavatli va 3 qismga ajratilgan chuqur ravoqlardan, ravoqlar orti esa hujralardan tashkil topgan. Peshtoqning ikki yonida joylashgan ushbu hujralar, madrasa zallarining (masjid va darsxonaning) oldida qurilgan. 1-qavatning markaziy chuqur ravoqlarida o‘rnatilgan eshiklar madrasa tashqarisidan zallarga kirish va zallardan tashqariga chiqish uchun mo‘ljallab qurilgan. Qanotlarning ikki yonida, devorlar burchagiga tirgak va bezak vazifasini o‘tovchi gumbazsiz guldastalar o‘rnatilgan.

Ko‘kaldosh madrasasining diqqatga sazovor joylari fasadortida joylashgan miyonsaroy, masjid va darsxonadagi ichki gumbazlardir. Ular ganchga bezak berib ishlangan

Miyonsaroy madrasaga kirish darvozasi ortida joylashgan. Adabiyotlarda miyonxona, darvozaxona, vestibul tarzida ham nomlanadi. U 5 gumbazli bo‘lmalardan tashkil topgan bo‘lib, madrasa hovlisiga kirish uchun koridor vazifasini bajaradi. Miyonsaroyning ikki yonida madrasa zallari joylashgan.

Miyonsaroyning sernaqsh qubbalari o‘z konstruksiyasi bilan tashrif buyuruvchilar e‘tiborini o‘ziga tortadi. Ular ganchdan xilma-xil qilib quyilgan ravoqlardan yig‘ilgan. Uning ichki gumbazlari va bag‘allari, shipi o‘ziga xos turli shakldagi murakkab to‘rsimon, yulduzsimon, qolipkori va iroqi uslubida pishiq g‘ishtdan ganch






qorishmasida terilgan. Miyonsaroyning o'ng tomonidan o'tuvchi yo'lakda botiq va yotiq qovurg'ali, mozaik plafonli, maydalangan g'ishtlardan yasalgan bukma yuzali ravoq shaklida dekorativ kvadrat bostirma diqqatga sazovor.

Madrasa zallari. Mir Arab madrasasida bo'lgani kabi Ko'kaldosh madrasasi rejasida ham burchak xonalarining tugunlari ishlab chiqilgan. Binoning 2 old tomonidagi burchaklarda 2 asosiy zal — masjid (miyonsaroydan g'arbda) va darsxona (miyonsaroydan sharqda) joylashgan bo'lib, ular assimetrik chuqur nishlarga ega xoch shaklida rejalashtirilgan. Masjid va darsxona ichki gumbazlari alohida, quyma ganchli ravoqlardan tuzilgan. Ravoq burchaklariga muqarnaslar ishlangan, katta qiya yassiliklar yulduzsimon ornament bilan bezatilgan.

Madrasa hovlisi. To'g'ri burchak shaklidagi (42x37 metr) uzun qilib solingan madrasa hovlisiga miyonsaroy orqali kiriladi. Hovli tomondagi 2 qavatli chuqur ravoqlar qatorini yuzma-yuz qilib joylashtirilgan peshtoqli 2 ta baland ayvonlar ajratib turadi. Mablag'ni va turar joyni tejash uchun madrasa bo'ylama o'q bo'ylab ikkitagina gumbazli ayvon qilib qurilgan. Har bir ravoqdan alohida hujraga kiriladi. Hovli atrofi 2 qavatli hujralar bilan o'rab olingan. Yon tomonidagi hujralarning pastki qavatiga (tashqi devorlarida) xonani yoritish uchun panjaralar o'rnatilgan. Yuqori qavatiga esa qator qilib chuqur ravoqlar ishlangan. Ravoqlar tepasini va ba'zi darcha panjaralarini bezatishda sirkor koshin ancha tejab ishlatilgan. Hovlidagi shimoliy peshtoq ganchga yopishtirilgan sirkor koshin bo'laklar bilan bezatilgan. Bu ko'k, yashil va oq naqshinkor bezaklar o'simliklarni tasvirlaydi. 1950-yillarda peshtoq o'zining avvalgi shaklini deyarli yo'qotgan va shuning uchun temir bilan tiralib, troslar bilan tortilib mustahkamlab qo'yilgan holatda bo'lgan.

Burchakdagi katta hujralar. Madrasaning ikki orqa burchagida vestibullar joylashgan bo'lib, ulardan hujralar va omborxonalariga eltuvchi, radial ravishda ajratilgan yo'laklar mavjud.

Madrasa hayoti va undagi ta'lim tizimi. Ko'kaldosh madrasasi Buxoro xonligi (amirligi) ta'lim tizimining eng oliy toifadagi o'quv dargohi — o'ziga xos Fanlar akademiyasi edi. U o'zining ushbu maqomini Buxoro xalq sovet respublikasi tashkil etilgandan so'ng ham yo'qotmadi. Madrasa bu davrda yagona Dor ul-funun bo'lib qoldi. Qolgan yirik madrasalar esa Dor ut-tolibin (Mulla Tursunjon, Govkushon, Abdullaxon madrasalari) va Doril-mudarrisin (Mir Arab madrasasi) deya ataladigan bo'ldi.





Buxoro ilm va ta'lim-tarbiya tizimining eng oliy toifadagi olimlari — oxund, a'lam, muftilar biror masalani hal etish maqsadida, odatda, ushbu madrasada yig'ilishgan. Madrasaning mudarrisi oxund, oliy ta'lim sohasidagi oliy darajani egallagan, ziyoli olimlar ichidan ta'yinlangan. Abdurahmon Abdulloh oxund ushbu toifa vakili to'g'risida shunday ma'lumot yozib qoldirgan:

“Buxoroda faqat birgina oxund bo'lgan. Ya'ni 11 nafar muftidan biri Gavkushon madrasasida a'lam unvoniga yetgach undan so'ng Ko'kaldosh madrasasida oxund bo'lardi va undan boshqa o'ringa bormasdan shu yerda vafot etardi. Shu sababli Ko'kaldosh madrasasini oxundga nisbatan Darvozai mar, ya'ni O'lim qopqasi derlar”.

Madrasaning 1 nafardan mudarrisi, imomi, muazzini va 2 nafar farroshi vaqf mablag'idan ish haqi, talabalar esa — stipendiya olishgan.

Maliho Samarqandiy, Ziyo Sadr kabi olimlar yozishicha, o'tgan besh yuz yil mobaynida Markaziy Osiyodan tashqari Hindiston, Afg'oniston, Eron, Rossiya, Turkmaniston, Kavkaz kabi o'lkalarning ilm talab ziyolilari Ko'kaldosh madrasasida ta'lim olishgan.

Talabalar hujralarda yashashgan. Bitta hujrada 2 nafar talaba yashagan. Mashg'ulotni 2 oy uzrli sababsiz tark etgan talaba madrasadan chetlashtirilgan.

Ko'kaldosh madrasasining vaqf hujjatida uning muassisi qayd etgan shartga ko'ra, vaqfga o'tkazilgan kitoblar 2 mutavallining ixtiyoriga berilgan. Ularning biri madrasa vaqfining ko'chmas mulk mutavallisi, ikkinchisi esa kutubxona mutavallisi bo'lgan.

Madrasada talabalarning o'qitilishi taxminan 20 yil davom etgan. Madrasa o'quvchisi (mullobacha) birinchi 3—4 yildan so'ng muazzin (yoki so'fi) unvonini olgan. Yana 1—2 yil o'tib dahyak unvonini qo'lga kiritgan. Bu unga stipendiya olish huquqini bergan. Dahyak stipendiyasining qiymati yiliga 120 tangani tashkil etgan. Yana bir qancha vaqt o'tib esa dahyak qori bo'lgan. Ta'limning keyingi bosqichida talaba salovot dushambegi unvonini olgan. Shundan so'nggina madrasa kursi tugallangan hisoblanib, talabaga mudarris unvoni berilgan. Mudarris bir necha yillar davomida bir guruh talabalarni qabul qilgan holda bepul ta'lim bergan. So'ngra unga madrasa vaqfidan yilik maosh belgilangan.

Ma'lumotlarga ko'ra, madrasa talabalari quyidagi 3 toifaga ajratilgan. Past qadam — yillik maoshi 3 tilla, Sarf ilmidan Tahzibgacha o'qigan; Miyona — yiliga 3,5 tilla olgan, Tahzibdan Mulla Jalolgacha o'qigan; Pesh qadam — Mulla Jaloldan keyin davom ettirgan va yiliga 5 tilla haq olgan.






Buxoro xonligi (amirligi) davrida madrasada bir-necha marotaba kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan: peshtoqining qulab tushgan ravoqi qayta tiklangan, sharqiy tomonining 2-qavati arkadalari qayta qurilgan.

Nodir Devonbegi xonaqohi - Labihovuz ansamblida hovuz bilan birga bunyod etilgan. Peshtog'i hashamatli, ravog'ining qanoti ancha baland, ulug'vor, ayrim yerlarida koshinlarning parchalari saqlanib qolgan. Ikki tomonidagi tagi qirrali guldasta-mezanalar old ko'rinishiga salobat beradi. Xonaqohning 2 yonidan ham hujralarga kiriladigan eshiklari bo'lgan. Devorlari bir necha bor ta'mirlanganidan (1914—1916-yillarda Buxoroning oxirgi amiri Sayyid Olimxon tomonidan ta'mirlangan) asl ko'rinishi o'zgargan. Nodir devonbegi xonaqohi simmetrik tarhli (27,5X25 metr), kiraverishda ayvon, xonaqoh (11,2×11,2 metr) va uning yon tomonlarida 2 qavatli darvishlar yotog'i bo'lgan. Guldastalar ichidagi aylana zina bilan bino tepasiga chiqiladi. Xonaqoh ulkan gumbazli, devorlariga taxmonlar ishlangan. Undagi serhasham naqshlar saqlanmagan. Peshtoq ravog'idagi 3 tobadonni ganchkori panjaralar bezagan. Nodir devonbegi xonaqohining hozirgi ko'rinishi o'zgarib muhtasham, salobatli, ko'rkam inshootga aylantirilgan.

Nodir devonbegi madrasasi (asl nomi: Nadr devonbegi madrasasi) — Buxoro xoni Imomqulixonning vaziri Nodir devonbegi (Nodir mirzo Tog'ay ibn Sulton) qurdirgan (1622—23). Nodir Devonbegi madrasasi (Buxoro) Labi-hovuz ansamblining sharqiy qismida joylashgan. Dastlab karvonsaroy sifatida qurilgan, xonning qarori bilan madrasaga aylantirilgan. Unda madrasalarga xos ayvon, masjid va katta darsxona yo'q, hovli atrofi 4 tomondan 2 qavatli kichik hujralar bilan o'ralgan. Hujralarga o'ymakori usulida bezatilgan eshiklar, eshiklar tepasidagi tobadonga panjaralar o'rnatilgan. Hovliga pishiq g'isht yotqizilgan. Bosh tarzi maydonga qaragan. Old tomonida hovuz bor. Peshtog'i o'ziga xos mahobatli va serhashamdir. Undagi o'simliksimon naqshlar orasida quyoshga intilayotgan afsonaviy xumo qushi va bug'uning o'tlab yurgan tasviri koshinkori bezaklari yorqin bo'yoqlarda aks ettirilgan. Hoshiyalariga, kitobasiga arabiy yozuvlar bitilgan. Ustungo'shasi buramasimon. Peshtog'ining 2 yon qanotidagi 2 qavatli 3 tadan chuqur ravoqli peshayvon alohida zeb berib pardozlangan. Burchaklaridagi 2 guldasta ravoqlardagi naqshlar bilan o'zaro uy-g'unlashgan. Madrasa tarhi 52x49 m, hovli 34 xZO m. Nodir Devonbegi madrasasi bir necha marta ta'mirlanib, gumbaz, ravoq va devorlaridagi namlik yo'qotilib, buzilib ketgan hujralari





qayta tiklandi. Samarqand va Buxoro ustalarining sa'y harakatlari bilan bosh tarzi qayta jilolandi.

Keyinroq maydonga Xo'ja Nasriddin haykali o'rnatiladi. Shaharning ko'plab hovuzlari kabi Labi Hovuz ham Ulug' Vatan Urushidan so'ng quritilgan va o'zga xos sport maydoni qurdirilib, u yerda voleybol hamda kurash bo'yicha bellashuvlar o'tkazilgan. Hovuzga yaqin yerlarda sovet hukmronligi paytida "Gastronom", "Buxoro" restorani, "Komsomolets" kinoteatrlari joylashgan. 50-yillar Gastronomda yong'in sodir bo'lib, do'kon batamom kul bo'ladi, yonidan oqib o'tuvchi "Shoxrud" arig'idan oqib o'tuvchi suv ham yong'inni to'xtatishga yetmaydi. Ushbu nohush hodisadan so'ng shahar ma'muriyati hovuzni suv bilan to'ldirib qo'yishga qaror qilishadi. 50-yillar oxirida esa hovuz atroflariga quvurlar o'tkazib, favvora qurilgan bo'lib, u hozirgi kungacha ishlab turmoqda.

Hozirgi kunga kelib Buxorodagi Labi hovuz ansambli yangidan ta'mirdan chiqarilgan hamda shahar ahli va sayyohlarning sevimli go'shasiga aylangan. Labi hovuzning salqin shamoli va unga o'rnatilgan chiroqli favvoralar bilan bir qatorda, Buxorodagi boshqa tarixiy obidalaridan farqli o'laroq, bu inshootda kechki vaqtlarda ham odam gavjum bo'ladi va mehmonlarga barcha turdagi xizmatlar ko'rsatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. „Моддий маданий мероснинг кўчмас мулк объектлари миллий рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 846-сон 04.10.2019 й. қарори“. Lex.uz. Qaraldi: 22-sentabr 2020-yil.

2. Общественные науки в Узбекистане 1993.
3. Всеобщая история архитектуры 1969. s 313.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
5. google.uz
6. Wikipedia

